



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG'I**

20<sup>23</sup> y. "23" fevral

Nº 01-10/32

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi  
Yoshlar ishlari agentligida ish yuritish, ijro intizomi hamda  
jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash tizimini  
mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldag'i PF-6166-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati vazirligida ish yuritish, ijro intizomi hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlar bilan ishslash tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-fevraldag'i 01/136-A/F-son buyrug'i ijrosini ta'minlash shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi tizimida ish yuritish, ijro intizomi hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash tizimini mustahkamlash maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

**1. Quyidagilar:**

Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinosari va direktor o'rinosarlari tomonidan 2023-yilning birinchi yarmida hududlarda o'tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabul qilish grafigi **1-ilovaga**;

Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinosari va direktor o'rinosarlari tomonidan Agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish grafigi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinosari (J.Xodjayev), direktor o'rinosarlari (F.Ablayarov, D.Kattaxanova) Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda 1-ilovadagi grafikka muvofiq joylarda qabullarni belgilangan tartibda tashkillashtirib, qabul jarayonida kelib tushgan

murojaatlarni imkon qadar joyida hal etish choralarini ko'rsin, shuningdek murojaatlarni muddatida sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlasin.

3. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi boshlig'i (S.Abdunazarov)ga:

"Ijro.gov.uz" hamda "edo.ijro.uz" tizimi orqali Agentlik markaziy apparatida ish yuritilishini monitoring va nazorat qilish;

ijro intizomiga rioya etmayotgan mas'ullarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo'llash to'g'risida Agentlik rahbariyatiga taklif kiritib borish;

b) Murojaatlar bilan ishslash bo'limi (J.Shamsutdinov)ga:

Agentlik markaziy apparatiga kelib tushayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari mas'ul ijrochilar tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi va hal etilishini doimiy monitoring qilish;

kelib tushayotgan murojaatlar va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida haftada kamida bir marotaba Agentlik rahbariyatiga axborot kiritib borish;

aholini murojaat qilishga sabab bo'layotgan tizimli muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

murojaatlarni ko'rib chiqish muddati va tartibini buzgan xodimlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo'llash to'g'risida Agentlik rahbariyatiga taklif kiritib borish;

d) hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari boshliqlariga:

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabullarni tasdiqlangan grafikka qat'iy amal qilgan holda tashkil etib borish;

ijro intizomi va murojaatlarga mas'ul xodimlarning hisobotini har hafta o'rganib borish;

takroriy murojaatlar kelib tushishining oldini olish maqsadida murojaatlardagi masalalar to'liq ko'rib chiqilishi va hal etilishini ta'minlash;

aholini murojaat qilishga sabab bo'layotgan tizimli muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

joylarda sayyor qabullarni muntazam tashkillashtirish hamda qabullarda kelib tushgan murojaatlarni belgilangan tartibda hal qilish choralarini ko'rish;

kelib tushgan murojaatlarni, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladigan masalalarni tezkor o'rganib, o'z vaqtida munosabat bildirish choralarini ko'rish;

murojaatlar monitoringini tizimli tashkil etib, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni har oy yakuni bilan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar Agentlik markaziy apparatiga taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklansin.

4. Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati hamda hududiy boshqarma (bo'lim) boshliqlari ijro intizomiga amal qilishga hamda fuqaro murojaatlari ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlashga mas'ul ekanligi belgilansin.

5. Mazkur buyruq ijrosini samarali tashkil etish va nazorat qilish Agentlik direktorining birinchi o'rinosari va o'rinosarlari zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor**

**A. Sa'dullayev**



Yoshlar ishlari agentligining  
2023-yil “23” fevraldagi 01-10/32-son  
buyrug‘iga 1-ilova

**Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari hamda o‘rinbosarlari tomonidan 2023-yilning birinchi  
yarmida hududlarda o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabul qilish**

**G R A F I G I**

T/r	F.I.O	Lavozimi	<b>Sayyor qabullarni o‘tkazish joyi va vaqtি</b>				
			Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun
1.	Xodjayev Jamshid Baxtiyorovich	Direktoring birinchi o‘rinbosari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Toshkent Shahri	Xorazm viloyati	Surxondaryo viloyati	Buxoro viloyati
2.	Ablayarov Feruz Karimovich	Direktor o‘rinbosari	Samarqand viloyati	Toshkent viloyati	Jizzax viloyati	Sirdaryo viloyati	Navoiy viloyati
3.	Kattaxanova Dilnoza Sobir qizi	Direktor o‘rinbosari	Namangan viloyati		Andijon viloyati	Qashqadaryo viloyati	Farg‘ona viloyati

*Izoh: Sayyor qabullar viloyat, tuman va shaharlar markazlaridan uzoq hududlarda yashovchi fuqarolar bilan amalga oshiriladi.  
Sayyor qabullarni o‘tkazish vaqtleri rahbariyat bilan kelishgan holda o‘zgartirilishi mumkin.*

Yoshlar ishlari agentligining  
2023-yil “23” fevraldagi 01-10/31-son  
buyrug‘iga 2-ilova

## Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosarlarining jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish

### G R A F I G I

T/r	F.I.O	Lavozimi	Qabul kuni va vaqtি
1.	Xodjayev Jamshid Baxtiyorovich	Direktorning birinchi o‘rinbosari	Seshanba 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>
2.	Ablayarov Feruz Karimovich	Direktor o‘rinbosari	Payshanba 14 <sup>00</sup> -16 <sup>00</sup>
3.	Kattaxanova Dilnoza Sobir qizi	Direktor o‘rinbosari	Chorshanba 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>

**Izoh:** Direktor o‘rinbosarlari xizmat safarida bo‘lgan vaqtida murojaat tegishliligi bo‘yicha boshqarma va bo‘lim boshliqlari tomonidan o‘tkaziladi.

1. Ish kunlari: Dushanba-juma  
2. Ish vaqtি: 9<sup>00</sup> – 18<sup>00</sup>  
3. Tushlik: 13<sup>00</sup> – 14<sup>00</sup>

4. Ishonch raqami: 1093  
5. Elektron manzil info@yoshlar.gov.uz



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRINING BUYRUG'I

14«fevral»2023 yil.

01/136-A/F-son

### Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати вазирлигига иш юритиш, ижро интизоми ҳамда жисмоний ва юридик шахслар мурожаатлар билан ишлаш тизимини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида

Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Конуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қонунчилик ҳужжатлари ижросини самарали ташкил этишда давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбарларининг шахсий жавобгарлигини кучайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2021 йил 10 февралдаги ПФ-6166-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимияти ва бошқарув органларида иш юритиш ва ижро назоратини ташкил этиш бўйича норматив ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида” 1999 йил 29 марта 140-сон қарорига мувофиқ

#### БУЮРАМАН:

##### 1. Қуйидагилар:

а) Ўзбекистон Республикаси ёшлар сиёсати ва спорт вазири, вазирнинг биринчи ўринbosари ва вазир ўринbosарлари томонидан 2023 йилнинг биринчи ярмида ҳудудларда ўтказиладиган жисмоний ва юридик шахсларни сайёр қабул қилиш графиги **1-иловага**;

б) Ўзбекистон Республикаси ёшлар сиёсати ва спорт вазири, вазирнинг биринчи ўринbosари ва вазир ўринbosарлари томонидан вазирликда жисмоний ва юридик шахсларни қабул қилиш графиги **2-иловага**;

в) Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлигининг (бундан буён матнда вазирлик деб юритилади) департамент, бошқарма ва бўлимларини индекслари **3-иловага** мувофиқ тасдиқлансан.

2. Вазирнинг биринчи ўринbosари (**А.Саъдулаев**), вазир ўринbosарлари (**Махмудов, Рахимова, Исмаилов**) Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармаси бошликлари билан биргаликда тасдиқланган **графикка** мувофиқ жойларда қабулларни белгиланган тартибда

жойида ҳал этиш чораларини кўрсин, шунингдек мурожаатларни муддатида сифатли кўриб чиқилишини таъминласин.

3. Вазирлик марказий аппарати, Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармалари, Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда вазирлик тизимидағи республика ташкилот ва муассасалар:

а) вазирлик тизимида берилган топшириклар ижросини назорат килиш, назорат картотекаларини юритиш ва ҳисботларни фақат “Ijro.gov.uz” ижро интизоми идоралараро ягона электрон тизимида амалга оширилиши;

б) вазирлик тизимидағи ташкилотлар хужжатлар айланиши “edo.ijro.uz” тизими орқали амалга оширилишини таъминласин.

#### 4. Белгилансинки:

а) вазирликка келиб тушган хужжатлар вазирлик девонхонаси томонидан кирим қилинади, хужжатлар резолюция тайёрланиши ва раҳбариятига киритилишини таъминлаш учун вазир ёрдамчиси, вазирнинг биринчи ўринbosари ва вазир ўринbosарларининг котиб (котиба)ларига йўналтирилади;

б) таркибий бўлинмаларнинг асослантирилган таклифларига кўра, резолюцияга ўзгартириш киритиш фақат раҳбарият томонидан амалга оширилади;

в) вазирлик раҳбарияти томонидан асосий фаолиятдаги ва хизмат доирасида фойдаланиш учун буйруқлар ҳамда чиқиш хатлари “edo.ijro.uz” электрон дастурида электрон имзо орқали амалга оширилади, хужжатлар автоматик равишда рақамланади ҳамда вазирлик девонхонасида сакланади.

5. Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармалари, Ёшлар ишлари агентлиги, вазирлик тизимидағи республика ташкилот ва муассасаларга:

а) жисмоний ва юридик шахслар мурожаатларини тинглаш ва кўриб чиқиш бўйича **қабулларни** тасдиқланган графикка **қатъий** амал қилган холда ташкил этиб бориш;

б) ижро интизоми ва мурожаатларга масъул ходимларни **ҳафтада камида бир маротаба** қабул қилиш ҳамда ҳисботини тинглаш;

в) аҳолини мурожаат қилишга сабаб бўлаётган тизимли муаммолар ва уларни келтириб чиқарувчи омилларни бартараф этиш чораларини кўриш;

г) жойларда **сайёр қабулларни** мунтазам ташкиллаштириш ҳамда қабулларда келиб тушган мурожаатларни қисқа муддатларга ҳал қилиш чораларини кўриш;

е) келиб тушган мурожаатларни, шу жумладан, ижтимоий тармоқларда тез тарқаладиган масалаларни **тезкор** ўрганиб, ўз вақтида муносабат билдириш;

ж) мурожаатлар мониторингини тизимли ташкил этиб, амалга оширилган ишлар бўйича ҳисоботларни ҳар ой якуни билан кейинги ойнинг бешинчи санасига қадар вазирлик марказий аппаратига тақдим этилишини тъминлашга **шахсан масъул ва жавобгар ҳисобланади**.

#### 6. Белгилаб қўйилсинки:

а) вазирлик марказий аппаратида жисмоний ва юридик шахслар мурожаатлари бўйича қабулларни ташкил этиш, шунингдек қабул жараёнларида мурожаатларни қайд этиб ижрога йўналтириш, шунингдек худудий тузилмаларда мурожаатлар билан ишлаш борасидаги ишларни **мониторинг ва назорат қилишга** Мурожаатлар билан ишлаш бўйича бош мутахассиси **А.Хамдамов**;

б) вазирлик ва унинг Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармалари, Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда вазирлик тизимидағи республика ташкилот ва муассасаларда ижро интизомини мустаҳкамлаш, берилган топшириқ ва вазифаларнинг ўз вақтида ва сифатли ижро этилиши устидан қатъий назорат олиб боришга Ахборот-таҳлил ва ижро интизоми бўлими **масъул ва жавобгар ҳисобланади**.

7. Вазир котибияти бошлиғи (**Хамраев**), Ахборот-таҳлил ва ижро интизоми бўлими ва мурожаатлар билан ишлаш бўйича бош мутахассиси (**А.Хамдамов**) вазирлик, Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармалари ҳамда Ёшлар ишлари агентлигига ижро интизоми ҳамда мурожаатлар билан ишлаш тартибини қўпол равишда бузган, шунингдек бу борада сусткашликка йўл қўйган раҳбар ва ходимларга нисбатан қатъий интизомий жазо чораларини қўллаш юзасидан таклифларни киритиб борсин.

#### 8. Девонхона (**Расурова**)га:

а) мазкур буйруқ билан вазирликнинг департамент, бошқарма ва бўйимларини таништириш;

б) Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармалари, Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда вазирлик тизимидағи республика ташкилот ва муассасаларга юбориш вазифалари юклатилсин.

9. Мазкур буйруқ ижросини назорат қилишни ўз зиммамда қолдираман.

Вазир



А. Икрамов

Ёшлар сиёсати ва спорт вазирининг  
2023 йил “ ” февралдаги \_\_\_\_\_ -АФ-сон  
бўйругига 1-илова

Ёшлар сиёсати ва Спорт вазири, вазир ўринбосарлари ва вазир маслаҳатчиси томонидан  
2023 йилнинг биринчи ярмида ҳудудларда ўтказиладиган жисмоний ва юридик шахсларни сайёр қабул қилиш

### ГРАФИГИ

Т/р	Ф.И.Ш	Лавозими	Сайёр қабулларни ўтказиш жойи ва вақти					
			Январь	Февраль	Март	Апрель	Май	Июнь
1.	ИКРАМОВ Адхам Ильхамович	Вазир						Тошкент шаҳар
2.	САЪДУЛЛАЕВ Алишер Зафар ўғли	Вазирнинг биринчи ўринбосари		Қорақалпоғистон Республикаси		Хоразм вилояти		
3.	РАХИМОВА Дурдана Шукуруллаевна	Вазир ўринбосари			Тошкент вилояти		Сирдарё вилояти	
4.	МАХМУДОВ Шахрилло Шарипович	Вазир ўринбосари		Наманган вилояти		Андижон вилояти		Фарғона вилояти
5.	ИСМАИЛОВ Мурод Валижонович	Вазир ўринбосари			Бухоро вилояти		Навоий вилояти	

Изоҳ: Сайёр қабуллар вилоят, туман ва шаҳарлар марказларидан узоқ ҳудудларда яшовчи фуқаролар билан амалга оширилади.  
Сайёр қабулларни ўтказиш вақтлари раҳбарият билан келишганд ҳолда ўзгартилиши мумкин.

Ёшлар сиёсати ва спорт вазирининг  
2023 йил “ ” февралдаги \_\_\_\_\_ -AF-сон  
бўйргига 2-илова

**Ёшлар сиёсати ва спорт вазири ва вазир ўринбосарларининг жисмоний ва юридик шахсларни қабул қилиш**

**ГРАФИГИ**

T/р	Ф.И.Ш	Лавозими	Қабул куни ва вақти
1.	ИКРАМОВ Адхам Ильхамович	Вазир	Шанба 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>
2.	САЪДУЛЛАЕВ Алишер Зафар ўғли	Вазирнинг биринчи ўринбосари	Пайшанба 14 <sup>00</sup> -16 <sup>00</sup>
3.	МАХМУДОВ Шахрилло Шарипович	Вазир ўринбосари	Сешанба 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>
4.	РАХИМОВА Дурдона Шукуруллаевна	Вазир ўринбосари	Чоршанба 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>
5.	ИСМАИЛОВ Мурод Валижонович	Вазир ўринбосари	Жума 10 <sup>00</sup> -12 <sup>00</sup>

*Изоҳ: Вазир ва вазир ўринбосарлари хизмат сафарида бўлган вақтда мурожаат тегишилилиги бўйича бошқарма ва бўлим бошлиқлари томонидан ўтказиласди.*

1. Иш кунлари: Душанба-жума
2. Иш вақти: 9<sup>00</sup> – 18<sup>00</sup>
3. Тушлик: 13<sup>00</sup> – 14<sup>00</sup>

4. Ишонч рақами:
5. Электрон манзил

(71) 239-24-52  
[info@minsport.uz](mailto:info@minsport.uz)